


Vaqt. Hafta



Vaqt to'xtamay o'taveradi. Ilgari bo'lib o'tgan voqealar o'tmish, **o'tgan zamon** deyiladi.

Hali bo'lmagan voqealar kelajak, **kelasi zamon** deyiladi. Biz esa bugungi kunda, **hozirgi zamonda** yashayapmiz.



O'tmish

Bugun

Kelajak



O'tmishda nimalar bo'lganini aytib bering. Bugungi kunni tasvirlang. Kelajakni qanday tasavvur qilyapsiz?




Taqvimga qarab, savollarga javob bering.



1. Taqvimdagi oy haftaning qaysi kunidan boshlangan?
2. Bu oyning o'n ikkinchi kuni haftaning qaysi kuniga to'g'ri keladi? Yigirmanchi kuni-chi?
3. Qaysi kunlar dushanbaga to'g'ri keladi?
4. Bu oy haftaning qaysi kunida tugaydi?

Dekabr

Dushanba	Seshanba	Chorshanba	Payshanba
		 1	2 
6 	7 	8 	9 
13 	14 	15 	16 
20 	21 	22 	23 
27 	28 	29 	30 



Qahramonlarimiz dam olish kuni nima qilishibdi?
Siz dam olish kunini qanday o'tkazdingiz?

Ish kunlari – dushanba, seshanba, chorshanba, payshanba, juma. Shanba va yakshanba esa **dam olish kunlari**.

Juma	Shanba	Yakshanba
3 	4 	5 
10 	11 	12 
17 	18 	19 
24 	25 	26 
31 